

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

UDK:

TARIXDA SIVILIZATSIYALARNING SHAKLLANISHI TARIXI XUSUSIDA
В ИСТОРИИ В ЧАСТНОСТИ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИВИЛИЗАЦИЙ
IN HISTORY IN PARTICULAR THE HISTORY OF FORMATION OF CIVILIZATIONS

¹**A.K.Nafasov**

¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston tarixi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilk sivilizatsiyalarning vujudga kelishi, omillari, rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, sug'orma dexqonchilikning paydo bo'lishi, mehnat taqsimotlari, sivilizatsiyalarning mintaqaviy o'ziga xosliklari, yangi industrial jamiyatlar haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

В данной статье говорится о возникновении первых цивилизаций, факторах, повлиявших на их развитие, возникновении орошаемого земледелия, разделении труда, региональных особенностях цивилизаций и новых индустриальных обществ.

Abstract

This article talks about the emergence of the first civilizations, the factors that influenced their development, the emergence of irrigated agriculture, the division of labor, regional characteristics of civilizations and new industrial societies.

Kalit so'zlar: *Sivilizatsiya, tamoyillari, mehnat taqsimoti, sug'orma dexqonchilik, jamoa, jamiyat, axborot texnologiyalari.*

Ключевые слова: *Цивилизация, принципы, разделение труда, орошаемое земледелие, община, общество, информационные технологии.*

Key words: *Civilization, principles, division of labor, irrigated agriculture, community, society, information technology.*

KIRISH

“Sivilizatsiya” atamasi lotincha sivilis so'zidan olingan bo'lib, shahar, shahar jamoasi, fuqaro, davlat, fuqaroviylikka, davlatchilikka oid ma'nolarni anglatadi. Bu atama birinchi marta fransuz olimi Mirabo tomonidan ishlatilgan. XVIII asrdan yevropa jamiyatida insoniyat o'tmishi bosqichlarini ifodalashda ishlatilgan. Ayni vaqtda ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham sivilizatsiya tushunchasi keng qo'llanilib kelinmoqda. Tarixan ilk sivilizatsiyaning shakllanishi miloddan avvalgi XVII asrlarda Old Osiyo va Yaqin Sharqda mezolit davridan boshlangan. Ibtidoiy jamoalar ichida ayrimlarining ilgarilab ketishi natijasida dexqonchilik va chorvachilik yuzaga keladi. Dexqonchilik avval boshdan sug'orma xarakterda bo'lgan. Uning asosida hayot kechirish garchi chorvachilikni siqib chiqarmasada, har holda ancha qisqartirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Tarixan ilk sivilizatsiyaning shakllanishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tarixiga oid tarixiy tadqiqotlarni uchta guruh: sovet davri, mustaqillik yillari hamda xorijiy tadqiqotlarga bo'lish mumkin. Sovet hokimiyati yillarida ham davlat va siyosat arboblari, tarixchilar tomonidan yaratilgan ayrim tadqiqotlarda ham sivilizatsiyaning shakllanishi tarixi haqidagi fikrlar ma'lum ma'noda o'z aksini topgan.

Mustaqillik yillarida sivilizatsiyaning shakllanishi masalasini o'rganish jarayonida, yoritilishida bir qator tadqiqotlar olib borildi. Jumladan shu xususda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tarixi va xo'jalik ahvoli to'g'risida xam so'z yuritilgan ilmiy ishlar olib borildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Sivilizatsiya” atamasi lotincha sivilis so'zidan olingan bo'lib, shahar, shahar jamoasi, fuqaro, davlat, fuqaroviylikka, davlatchilikka oid ma'nolarni anglatadi. Bu atama birinchi marta fransuz olimi Mirabo tomonidan ishlatilgan. XVIII asrdan yevropa jamiyatida insoniyat o'tmishi

bosqichlarini ifodalashda ishlatilgan. Ayni vaqtda ijtimoiy-gumanitar fanlarda ham sivilizatsiya tushunchasi keng qo'llanilib kelinmoqda.

Tarixan ilk sivilizatsiyaning shakllanishi miloddan avvalgi XVII asrlarda Old Osiyo va Yaqin Sharqda mezolit davridan boshlangan. Ibtidoiy jamoalar ichida ayrimlarining ilgarilab ketishi natijasida dexqonchilik va chorvachilik yuzaga keladi.

Dexqonchilik avval boshdan sug'orma xarakterda bo'lgan. Uning asosida hayot kechirish. Garchi chorvachilikni siqib chiqarmasada, har holda ancha qisqartiradi. Chorvachilik dehqonchilikdan 2000-yilcha avval kelib chiqqan bo'lib. Ma'lum guruh va terib-termaklovchilar ba'zi hayvonlarni xonakilashtirish bilan shug'ullanganlar. Bu, dastavval it, so'ngra echki, qo'y, eshak va keyinroq sigir va cho'chqa bo'lgan. Ovchilar va terib-termaklovchilar yovvoyi o'simliklar urug'larini ekib, hosilidan foydalana boshlaganlar. Birinchi bo'lib arpa, keyin bug'doy va boshqa o'simliklar o'zlashtirilgan.

Sug'orma dehqonchilikka asoslangan hayot neolit inqilobini yuzaga keltirgan. Chorvachilik va dexqonchilikning kelib chiqishi insoniyat tarixida birinchi mehnat taqsimoti edi. Sug'orma dehqonchilikni yo'lga qo'yishda murakkab irrigatsion ishlarni bajarish uchun doimiy, o'troq yashash zarur edi.

O'troqlikka o'tish jarayonida manzilgoxlar avvalgilariga nisbatan qulay va tashqi devorlarga ega edi. Bu esa boyliklar ma'lum bir jamoa tasarrufida to'planib borishini ham ta'minlagan. Faoliyat turlarining ko'payishi natijasida toshdan, yog'ochdan, suyakdan mehnat qurollari yasash, yerga ishlov berish, chorvachilik va dehqonchilik xom ashyolariga qayta ishlov berish, kulolchilik buyumlari yasash, uy-joylar qurish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu o'z navbatida ibtidoiy urug' jamoalari uchun o'zaro maxsulotlarni taqsimlash, iqtisodiy munosabatlar va ichki – tartib qoidalarni ishlab chiqishga undadi.

Ikkinchi va uchinchi yirik mehnat taqsimoti – hunarmandchilik va quruvchilikning maydonga kelishi yuqoridagi jarayonlarning natijasi bo'ldi. Bu davrda hayot kechirishning asosiy vositalariga egalik qilish umumiy hisoblangan. Bularning barchasi sivilizatsiya kelib chiqishining iqtisodiy jihati hisoblangan. Uning ijtimoiy ifodasi esa kishilarda totemistik shakllarni o'rniga yangi axloqiy normalar, keyinroq huquqiy meyorlar, ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarni ishlab chiqishga indagan. Sivilizatsiya kishisi esa iste'molchidan universal qadriyatlarni yaratuvchiga aylangan. Bular esa o'z navbatida to'rtinchi mehnat taqsimotini – harbiylar, zodagonlar va dohiylar bo'lishini, siyosiy boshqaruvning kelib chiqishiga olib keldi. Har qanday boshqaruv hokimiyatsiz bo'lmaydi. Avval boshdan inson terib-termaklab hayot kechirgan paytlarda mavjud resurslarga egalik qilish ham hokimiyatni bildirgan. Qadimgi Sharq mamlakatlarida xo'jalik faoliyati sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi va jamoaviy egalik qilish orqali olib borilganidan bu ishlarni boshqarish ijtimoiy hokimiyatning majburiylikka asoslangan siyosiy shakli yordamida amalga oshirilgan.

Ma'naviy sohada sivilizatsiyaviy hayotning qaror topishi eng radikal tarzda bo'lib, inson ruhiyatida mantiqiy tafakkurni, unda esa sifat jihatdan yangi dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Masalan, dehqonchilikni o'zlashtirgan jamoalar tabiiy jarayonlarni bilishga, o'simliklarga ishlov berish yillik sikllariga, yangi ishlab chiqarish malakalariga tayanadigan bo'ldi. Astrologiya, arifmetika, biologiya, tibbiyot, agronomiya kabi fanlarning kurtaklari shakllana boshlandi. Unsurlari ko'rina boshlangan ilk san'at namunalarida – urf-odat musiqalari va raqslarida asosan mifologik personajlar aks etgan. Sivilizatsiyaning ilk ko'rinishi bo'lgan neolit davri asta-sekin eneolit bosqichiga, ya'ni mis-tosh, bronza davrlariga o'rnini bo'shatib berdi. Eneolit sivilizatsiyasining o'ziga xos jihati shundaki, mulkning neolit davridagi umumiyligidan xususiy shakliga o'tildi. Xususiy mulk ikki shaklda vujudga keldi. Birinchisi jamoa va qabila boshliqlari qo'lida unumdor yerlar, chorva mollari va qullar to'plandi. Ikkinchidan mayda shaklda kichik yer egalari, chorvadorlar, hunarmandlarning mulki ko'rinishida amalda bo'ldi. Bu davrda qullarning o'rni alohida bo'lganligini nazarda tutmoq lozim. Ular mulk obyektiga aylangan kishilar edi. Lekin qullarni hamma joyda ham inson sifatida bir xilda ko'rishmagan.

Eneolit sivilizatsiyasi boshida hukmdor turgan. Sivilizatsiyaning bu bosqichida mahsulotlarning ko'plab ishlab chiqarilishi ularni muntazam ayirboshlashning zarur sharti sifatida pul muomalasini vujudga keltirdi. Muomala uchun dastlab oltin, so'ngra kumush tangalar ishlatila boshlangan. Mehnat taqsimoti yanada rivojlandi. Davlat apparati, turli sohalar bo'yicha amaldorlar, hunarmandlar, savdogarlar, munajjimlar, me'morlar qatlami vujudga keldi. Dastlab Shimoliy Afrikada Nil, Old Osiyoda Dajla va Yefrot, Hindistonda Gang, Markaziy Osiyoda Amudaryo va

Sirdaryo, Xitoyda Xuanxe va Yanszi daryolari havzasi atroflarida ilk sivilizatsiyalar tashkil topdi. Qadimgi Misr, Ikki daryo oralig'i, Antik dunyo - Yunoniston va Rim, Sharq sivilizatsiyasi kabi atamalar paydo bo'ldi.

Masalaning e'tiborga molik tarafi shundaki yuqorida keltirilgan sivilizatsiyalarning aksariyati shimoliy kenglikning 30-40 parallellari atrofida yuzaga kelganligi. Bu yerda Misr va Meksika ehromlari, Qadimgi Vavilon, Maxonjadaro tarixdan bunga misol bo'la oladi.

XULOSA

Taraqqiyotning agrar-an'naviy shakli insoniyat sivilizatsiyasi tarixini katta davrini o'z ichiga oladi. Bu ko'proq Osiyo-Sharq mamlakatlariga xosdir. Birinchi sivilizatsiyalar shu yerda paydo bo'lgan bo'lsa ham asosiy boyliklar va kuch ham davlat qo'lida saqlanib qoldi. Natijada Yevropaliklar bu hududlarga boradigan yangi yo'llarni ochib. Mustamlaka qilgan holda, boyliklarni o'zlashtira boshladi. Yangi industrial sivilizatsiyalar vujudga keldi. An'naviy og'ir sanoat o'rniga kompyuterlashtirish va axborotlashtirish texnologiyalari asosiy o'rinni egallay boshladi.

Ammo bora-bora sivilizatsiyalar ko'لامي kengayib, daryolar bu talabga javob bermay qoldi. Shu sababdan keyingi sivilizatsiya bosqichlari dengizlarga ko'chdi. O'rta asrlarga kelib Yevropadan boshqa qit'alarga borish uchun dengiz yo'llari ochildi. Yaqin va O'rta Sharq, O'rta Osiyo, Xitoy, Hindiston, Markaziy va Janubiy Amerikada taraqqiyotning yangi bosqichi boshlandi. Endi sivilizatsiyalar ko'لامي jahon okeanlari doirasi bilan belgilanadigan bo'ldi. Yangi zamon G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika sivilizatsiyasi vujudga keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston nashriyoti, 2017.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. –Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
4. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'k. - T., 7-jild. 1999.
5. Toynbi A. Postijeniye istorii. - M., 1991.